

UDK:633-492

**OROL BO'YI TUPROQ IQLIM SHAROITIDA NOANANAVIY
O'SIMLIK BATAT (SHIRIN KARTOSHKA) NING XO'JALIK UCHUN
FOYDALI BELGILARINI O'RGANISH**

Matiyakubov X.,

Ismoilova N.,

Nuretdinova M.

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi
va agrotexnologiyalar instituti*

***Аннотация.** В данной статье описаны результаты изучения роста, развития, роста, высоты, числа стеблей, полезных характеристик сортов батата (*Ipomoea batatas*) в условиях Каракалпакстана.*

***Базовые слова.** Батат, растение, рассада, количество стеблей, высота, рост, клубень.*

***Annotation.** In this article, in the conditions of Karakalpakstan, the growth, development, seedlings, shoots, height, number of stems, useful characteristics of Sochakinur sweet potato for cultivation were studied.*

***Basewords:** Sweet potato, plant, seedling, number of stems, height, growth, nodule.*

Kirish. Shirin kartoshka dunyo tropik va subtropik mamlakatlarida (Xitoy, Malavi, Tanzaniya, Nigeriya, Indoneziya, Hindiston, Yaponiya, Koreya, AQSh, Meksika, Kongo, Uganda kabilarda) asosiy oziq-ovqat ekini sifatida 8,7 mln. gektar maydonda ekilib, 113 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Batat yetishtiruvchi yetakchi mamlakatlarda bu ekinni o'stirishda o'simlik o'sish va rivojlanishiga qulay sharoit yaratadigan samarali tadbirlarni belgilash, barqaror, yuqori, sifatli hosil shakllanishiga imkon beradigan muayyan tuproq va iqlim sharoitiga moslanuvchan navlarini tanlash, yaratish, resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarini yaratish va joriy etish borasida tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizda shirin kartoshkaning turli hudud tuproq va iqlim sharoitlari uchun mos yangi navlarini tanlash va yaratish, ularni yetishtirish agrotexnologiyalari ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Qoraqalpog'iston sharoyitida batat yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilmagan. Shu sababli batat o'simligining mazkur sharoitda o'sib rivojlanishini har tamonlama o'rganish dolzarb mavzu hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Batat tuganaklaridan sanoatda kraxmal, spirtli ichimliklar va shakar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Batat yetishtiruvchi davlatlar xalqi uchun u sevib iste'mol qilinadigan oziq-ovqat hisoblanadi. Ugandaliklar ertalab quritilgan batat barglarini choy bilan iste'mol qilishadi. Yaponiya, Xitoy va Koreya davlatlarida batatdan murabbo, chipslar, batat unidan turli pishiriqlar va shirinliklar tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan. O'simlik pishib yetilgandan so'ng poyasi va barglari chorva mollarini oziqlantirishda foydalaniladi [2.].

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Belehu T., Hammes P.S. larning ma'lumotlariga qaraganda batat tunganagi tarkibida 69,1% suv, 1,7% azotli moddalar, 1,7% kletchatka, 26,4% azotsiz moddalar, 1,18% kul moddasi bor. Batat tarkibidagi azotsiz ekstraktiv moddalarning asosiy qismini kraxmal tashkil etib, uning miqdori 14,3-25,6%, qand esa monosaxarid va disaxarid (saxaroza) ko'rinishida bo'lib, u 1,4-6,1% ni tashkil etadi[1.].

Barcha tunganakmevali ekinlar singari shirin kartoshka ham azotga qaraganda kaliy elementiga ehtiyoji yuqori. Gektaridan 30 tonna palak va 22 tonna tunganak hosili olish uchun 80 kg sof azot, 29 kg sof fosfor va 185 kg sof kaliyni o'zlashtiradi [3.].

Tadqiqotlar Batat (shirin kartoshka) ning Sochakinur navini o'rganish va maqbul ekish muddatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar «Методика государственного сортоиспытания сельско хозяйственных культур», «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве» nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va V.A.Dospexov tavsiya etgan uslub bo'yicha olib borildi.

Natijalar. Tajribalar Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tajriba xo'jaligida 2023-yilda batat (shirin kartoshka)ning Sochakinur, Hazina va Pobeda navlarining o'sishi, rivojlanishi, ekilgan tugunaklar soni, ko'chat chiqimi, o'suv davrining davomiyligi, o'simlik bo'yi, yon shoxlari soni o'rganildi.(1-jadval)

Batatning vegetatsiya davri davomiyligi (1-jadval)

№	Nav nomi va kelib chiqishi	Ekilgan tunganaklar soni, dona	Standart ko'chat(o'simta) chiqimi, dona hisobida	O'sish davrining davomiyligi, kun	O'simlik bo'yi, sm	Yon poyalar soni
1	Xazina(S	33	15	118,2	175,2	8,9
2	Sochakin	40	18,7	119,1	189,3	12,2
3	Pobeda	36	16,2	120,2	177,8	10,1

Jadval malumotlaridan korinib turibdiki bir dona tunganakdan ko'chat chiqimi bo'yicha Sochakinur navida 18,7 dona,Pobeda navida esa 16,2 donani tashkil qildi. Nazorat navida esa (Xazina) 15 donani korsatdi.

O'suv davrining davomiyligi bo'yicha Sochakinur navida 119,1 kunni Pobeda navida esa 120,2 kunni ko'rsatdi. Bu belgi bo'yicha nazorat navi Xazina 118,2 kunni ko'rsatdi.

O'simlik bo'yi belgisi bo'yicha Sochakinur navida 189,3 smni, Pobeda navida bu ko'rsatgich 175,2 sm tashkil qilgan bo'lsa nazorat navi Xazina bu belgi 175,2 smni tashkil etdi. Batat ya'ni shirin kartoshkaning poyalar sonini aniqlaganimizda Sochakinur navining poyalar soni 12,2 donani, Pobeda navida esa 10,1 donani tashkil etdi. Nazorat navi Xazina esa bu ko'rsatgich 8,9 dona ekanligi tashkil qildi.

Muhokama. A.A.Shamsiyevning ta'kidlashicha Zarafshon vodiysida o'stirilgan batat o'simligining vegetatsiya davri 121 kundan 145 kunni tashkil qilgan. Bizning tajribalarimizda 118,2 va 120,2 kunni tashkil qildi. O'simlik bo'yi belgisi bo'yicha tahlil qilinganda 140 smdan 188 sm gacha ko'rsatkichni namoyon qilgan. Bizning tajriyalarimizda 175 smdan 189 sm gacha ko'rsatkich aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda batat (shirin kartoshka) o'simligi Sochakinur navi Qoraqalpog'iston tuproq iqlim sharoitida o'rganilganda 40 dona tugunakdan 18,7 dona ko'chat hosil bo'ldi, bu ko'chatlarning vegetatsiya davri o'rtacha 118,2 kunni tashkil qildi. Sochakinur navining o'simlik bo'yi o'rtacha 189,3 smni tashkil etdi, yon poyalar soni o'rtacha hisobda 12,2 donani tashkil etgani aniqlandi. Ajratilgan shirin kartoshkaning Sochakinur navi maqbul agrotexnologik tadbirlarda o'stirilganda iqtisodiy samaradorligini hisoblash va ishlab chiqarishga tavsiyalar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Belehr, P.S. Hammes (2004). Effect of temperature, soil moisture content and type of cutting on establishment of sweet potato cuttings. South African Journal of Plant and Soil, 21(2), 85-89.
2. Mavlyanova R.F., Mejidov S.M. "Технологии выращивания батата в Узбекистане". Рекомендация. Toshkent.-2003-S.18.
3. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I, Qodirxo'jaev O.Q. "Mevachilik va sabzavotchilik" (Sabzavotchilik). Toshkent. Navro'z. 2018. –B.552
4. Avazov Sh., Ostonaqulov T.E. Dala tajriba – sinov ishlari. o'quv qo'llanma. Toshkent, 2012. - B.96.
5. Azimov B.J., Bo'riev X.Ch., Azimov B.B. "Sabzavot ekinlari biologiyasi" Darslik. Toshkent-2001.140-bet.
6. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I, Qodirxo'jaev "Sabzavotchilik" 438-bet.
7. A.A.Shamsiyev "Zarafshon vodiysi sharoitiga mos shirin kartoshka (batat) navlarini ajratish va o'stirish texnologiyasini takomillashtirish" dissertatsiyasi avtoreferati.